



REGULATION OF SOCIAL MOBILITY MECHANISMS AS THE MAIN FACTOR OF SOCIAL MANAGEMENT

Lola Muzafarovna Karimova

associate professor, Ph.D

Bukhara State Medical Institute

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: anthropology, concept, theories, philosophy, Arab Muslim philosophy

Received: 16.12.23

Accepted: 18.12.23

Published: 20.12.23

Abstract: In this article, the author presented his research results on the issue of regulating the mechanisms of social mobility. The main factor of social management is the regulation of social mobility mechanisms.

ИЖТИМОЙ МОБИЛЛИК МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ ИЖТИМОЙ БОСHQARUVNING АСОСИЙ ОМИЛИ СИФАТИДА

Lola Muzafarovna Karimova

dotsent, PhD

Buxoro davlat tibbiyot instituti

Buxoro, O'zbekiston

МАҚОЛА НАҚИДА

Kalit so'zlar: antropologiya, tushuncha, nazariyalar, falsafa, arab musulmon falsafasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif ijtimoiy harakatchanlik mexanizmlarini tartibga solish masalasi bo'yicha o'z tadqiqot natijalarini taqdim etdi. Ijtimoiy boshqaruvning asosiy omili ijtimoiy harakatchanlik mexanizmlarini tartibga solishdir.

РЕГУЛИРОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ КАК ГЛАВНЫЙ ФАКТОР СОЦИАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ

Лола Музрафаровна Каримова

доцент, PhD

Бухарский государственный медицинский институт

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: антропология, концепция, теории, философия, арабо-мусульманская философия

Аннотация: В данной статье автор изложил свои результаты исследования по вопросу регулирования механизмов социальной мобильности. Главный фактор социального управления является регулирование механизмов социальной мобильности.

KIRISH

Ijtimoiy jarayonlarni boshqarish usullari orasida bugungi kunda ularni tartibga solish usuli alohida dolzarblik kasb etadi. Tartibga solish (regulyatsiya) tushunchasining mohiyatiga doir turli nuqtai nazarlar mavjud. Masalan, ta'sirning yo'nalihidan kelib chiqib tartibga solish ijtimoiy ob'ektning o'zini emas, balki u faoliyat yuritadigan va rivojlanadigan muhit sharoitlarini o'zgartirishga qaratilgan bilvosita boshqaruv ta'sirining bir turi hisoblanadi.

Boshqa tomondan, «regulyatsiya (tartibga solish)» – bu ma'lum bir jarayonni belgilangan me'yorlar, qoidalarga muvofiqlashtirish maqsadida boshqaruv harakati, ya'ni ijro etuvchi harakatning bir turidir. Zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy mavqening yuksalishi, odatda, ham sub'ekt, ham jamiyat uchun keraklidir. Ko'plab oilalarning yanada yuqori mavqeli guruhlarga o'tishi soliqqa tortish bazasini kengaytiradi, jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydi.

Demak, ayollar ijtimoiy mobillikni shu yondashuv nuqtai nazaridan tartibga solish – bu ushbu jarayonni tartibga solish, ya'ni, ma'lum fazilatlarga ega hamda tegishli harakatlarni sodir etishda shaxsiy sa'y-harakatlarini sarf qilishga tayyor ayollarning o'sib boruvchi harakatchanligiga ko'maklashish (rag'batlantirish).

ASOSIY QISM

Tartibga solish boshqaruvning eng kichik shakli sifatida belgilanadi, chunki «tartibga solish shakllanib bo'lgan munosabatlar doirasidagi faoliyat muammolarini hal qiladi. Lekin rivojlangan boshqaruv shakllari inson faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida muloqot shakllarini rivojlantirish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarini hal qilishga qaratilgan».

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, ayollar ijtimoiy mobillikni tartibga solish – bu ayollarning jamiyat hayotining turli sohalaridagi vertikal o'sib boruvchi (va ixtiyoriy gorizontal) harakatchanligi uchun sharoitlar yaratish, shu bilan bir vaqtda, pasayib boruvchi harakatchanlikka olib keluvchi shart-sharoitlarni bartaraf qilishga qaratilgan ijtimoiy institutlar va tashkilotlarning ta'sir ko'rsatishidir. Demak, ayollar ijtimoiy mobillikni tartibga solish, Ayollarning sub'ektiv intilishlarini amalga oshirishga, ayollarning jamiyatga integratsiya qilinishiga xizmat qiladi.

Ayollar ijtimoiy mobillikni tartibga solish ma'lum tuzilishga ega hamda muayyan funksiyalarni bajaradi.

Ayollar ijtimoiy mobillikni tartibga solish jarayonining tuzilishi ta'sir ko'rsatish tomonlari

(sub'ekti va ob'ekti), tartibga solishning me'yorlari, institutlari, boshqaruv harakatlari, shakllari va funksiyalarini o'z ichiga oladi.

Ayollar ijtimoiy mobillikni tartibga solish jarayoni ikki ishtirok etuvchi tomonga ega. Tartibga soluvchi tomon (ta'sir ko'rsatuvchi tomon) sifatida harakatchanlik jarayonlariga istalgan shakl berishdan manfaatdor yoki korporativ maqsadlarni ko'zlayotgan yoxud institutsional majburiyatlaridan kelib chiqayotgan hamda ayollar ijtimoiy mobillikka salmoqli ta'sir ko'rsatadigan va uni tartibga soladigan ijtimoiy institutlar va tashkilotlar faoliyat yuritadi.

Fikrimizcha, tartibga soluvchi ta'sir siyosiy institutlar, fuqarolik institutlari, jamoatchilik nazorati institutlari, ta'lim institutlari, iqtisodiy institutlar, ijtimoiy-moslashuv institutlari va hokazolar doirasida amalga oshiriladi.

Tartibga solinuvchi tomon (ta'sir ostidagi tomon) ayollar ijtimoiy mobillikning jarayonlari hamda tartibga solishning maqsadi bo'lgan ijtimoiy mobillik omillaridir.

Ayollar ijtimoiy mobillikni tartibga solish davomida qarorlar tayyorlash va qabul qilish, hamkorlik, tashkilotchilik, muloqot, nazorat, baholash kabi yo'naltiruvchi va ijro etuvchi harakatlar sodir etiladi.

Ayollar ijtimoiy mobillikni tartibga solishning shakllari bir nechta mezonlar asosida tasniflanadi.

Birinchidan, tartibga soluvchi ta'sirni amalga oshirish darajasiga ko'ra respublika, hudud (o'lka, voxa), viloyat, tuman va shahar darajalarida amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, ijtimoiy mobillikning turlariga ko'ra kasbiy-mehnat, ta'lim, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, nikoh va oila munosabatlarini tartibga solish ajratiladi.

Uchinchidan, tartibga solishning turli ayollar guruhlariga qaratilgani bilan o'quvchi ayollar, talaba ayollar, mehnatkash ayollar, yosh oilalar, nogironligi bor ayollar, shahar va qishloq ayollarining ijtimoiy mobilligini tartibga solish turlari mavjud.

Ayollar ijtimoiy mobillikni tartibga solishning asosiy funksiyalari quyidagilar: barqarorlashtiruvchi, innovatsion, boshqaruvchi, ish kuchini qayta taqsimlash funksiyasi, ishlab chiqarish unumdarligini oshirish funksiyasi, nazorat, shaxsiy, saralash, kommunikativ, translyatsiya, emotSIONAL, ijtimoiylashuv funksiyalari.

Barqarorlashtiruvchi funksiya tartibga solinmayotgan ijtimoiy mobillik jamiyatning beqarorlashuviga olib kelishi, boshqaruv esa ijtimoiy tuzilmaning yaxlitligi, barqarorligini ta'minlashidan iborat.

Ijtimoiy mobillikning tartibga solinishi jamiyat ijtimoiy tuzilishining yangilanishi, yetuk kadrlar oqimini ta'minlashi (innovatsiyaviy funksiya), tarmoq, hudud, milliy mehnat bozorlarida ish kuchining qayta taqsimlanishi, mehnat bozori talablari va mutaxassislarni tayyorlash tizimi o'rtaqidagi muvofiqlikni ta'minlash (regulyativ funksiya) imkonini beradi. Tartibga soluvchi

ta'sirning amalga oshirilishi ish beruvchilarning ishchilarning kasbiy-malakaviy sifatlariga doir talablarning maqbul nisbatini ta'minlash imkonini beradi (ishlab chiqarish unumdorligini oshirish funksiyasi).

XULOSA

Ayollar ijtimoiy mobillikni tartibga solish davomida ma'lum me'yorlar davlat organlari va jamoatchilik tomonidan ishlab chiqiladi. Turli rasmiy va norasmiy, ijobiy va salbiy sanksiyalar tartibga solinuvchilarga nisbatan qo'llaniladi, bunga misol qilib davlatning ma'muriy javobgarlik va jinoyat huquqiga oid me'yoriy huquqiy hujjatlari yoki kodekslarini aytib o'tish mumkin. Keng jamoatchilk tomonidan esa jamoatchilik nazoratining o'rnatilishidir.

Ayollar ijtimoiy mobillikni tartibga solish ayollar shaxsini ular egallab turgan mavqeining ijtimoiy-iqtisodiy maqomi hamda yakka tartibdagi ehtiyojlar o'rtasidagi muvofiqlikning ortishi orqali yuksaltirish (shaxsiy funksiya); ularning yanada ko'tarilishi uchun ular orasidan yetuklarini tanlab olish (saralash); ayollarda muayyan ijtimoiy fazilatlarning shakllanishi (tarbiyaviy funksiya); yangi qatlam, guruh, tashkilotlarda muloqotni maqbullashtirish (kommunikativ funksiya) imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Данакин Н.С. Теоретические и методические основы проектирования технологий социального управления. – Белгород: Центр социальных технологий, 1996. – С. 23-24.
2. Социальное управление: Словарь / Под ред. В.И. Добренькова, И.М. Слепенкова. – М: Изд-во МГУ, 1994. – С. 134.
3. Дятченко Л.Я. Социальные технологии в управлении общественными процессами. – М: - Белгород: Центр социальных технологий, 1993. – С.17-18.
4. Karimova L. M. SOCIAL PROCESSES SOCIAL MOBILIKNING MOVEMENT QUALITATIVE STREET //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2023. – Т. 3. – №. 10. – С. 17-23.
5. Karimova L. M. JAMI OF SUFI PHILOSOPHY //Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals. – 2023. – Т. 3. – №. 05. – С. 105-108.
6. Karimova L. M. ETHICS IN THE WORKS OF ABDURAHMAN JAMI //The American Journal of Political Science Law and Criminology. – 2023. – Т. 5. – №. 04. – С. 73-76.
7. Karimova L. M. THE IMPORTANCE OF THE IDEAS OF FRIENDSHIP IN STRENGTHENING THE SOLIDARITY AND UNION OF YOUNG PEOPLE IN THE VIEWS OF THE THINKER //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 247-251.
8. Karimova L. M. Abdurrahman Jami And Sufism //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – Т. 6. – №. 8. – С. 2866-2874.

9. Karimova L. M. SOCIO-CULTURAL AND SCIENTIFIC ENVIRONMENT IN MOVAROUNNAHR AND KHORASAN IN XIII-XV CENTURIES //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY. – 2022. – T. 3. – №. 07. – C. 29-38.
10. Karimova L. M. IDEOLOGICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF ABDURAHMAN JAMI'S VIEWS ON THE EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2022. – T. 2. – №. 07. – C. 28-34.
11. Muzaffarovna K. L. THE VIEWS OF ABDURAHMAN JAMI ON FAMILY AND FAMILY UPBRINGING //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – T. 11. – C. 90-94.
12. Karimova L. M. The Role of the Ideas about Human Qualities of Thinker Abdurahman Jami in the Education of Youth // " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2021. – C. 30-32.
13. Karimova L. M. About Human Health and Manners in the Rashkhas of Abdurahman Jami //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2021. – T. 2. – №. 9. – C. 24-27.
14. Karimova L. M. Abdurahman Jami's Views on Humanity (Source Study) //International Journal on Integrated Education. – 2021. – T. 4. – №. 11. – C. 146-149.
15. Karimova L. M. ABDURAHMON JOMIY GUMANISTIK QARASHLARINING YOSH AVLODNI TARBIYALASHDAGI O 'RNI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 8. – C. 448-455.
16. Karimova L. M. The Issues of Human Being in the Rashhas of Abdurahman Jami //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 16. – C. 28-34.
17. Каримова Л. М. АБДУРАХМОН ЖОМИЙ ФАЛСАФИЙ ДУНЁҚАРАШИ ШАКЛЛАНИШИНИНГ ГЕНЕЗИСИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 273-282.
18. Choriyeva , M. A. . (2023). EXISTENTIALISM: BRIEFLY ABOUT THE MOST IMPORTANT THINGS. Journal of Social Research in Uzbekistan, 3(06), 18–23. <https://doi.org/10.37547/supsci-jsru-03-06-04>
19. Choriyeva M. A. THEORY OF KNOWLEDGE AND RATIONALISM IN THE PHILOSOPHY OF FIRDAVSI //European International Journal of Pedagogics. – 2023. – Т. 3. – №. 06. – С. 104-108.
20. Choriyeva , M. A. . (2023). THE VALUE OF THE PHILOSOPHICAL IDEAS OF FIRDAVSI IN THE EDUCATION OF YOUTH. Oriental Journal of History, Politics and Law, 3(06), 136–141. <https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-03-06-17>

21. Akhmedova, Z. A. . (2023). EASTERN PHILOSOPHY: FEATURES AND RANGE OF PROBLEMS. *Journal of Social Research in Uzbekistan*, 3(06), 1–6. <https://doi.org/10.37547/supsci-jsru-03-06-01>
22. Akhmedova Z. A. ANTHROPOLOGY AND SUFI ETHICS //*Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*. – 2023. – T. 3. – №. 11. – C. 55-57.
23. Gadoyeva L. E. THE PLACE OF PHILOSOPHY IN ISLAM //*Oriental Journal of Social Sciences*. – 2023. – T. 3. – №. 06. – C. 33-37.
24. Gadoyeva , L. E. . (2023). FEATURES OF THE PHILOSOPHY OF THE ANCIENT EAST. *Journal of Social Research in Uzbekistan*, 3(06), 12–17. <https://doi.org/10.37547/supsci-jsru-03-06-03>
25. Khamdamov B. K. MORAL VIEWS OF ZAKHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR //*Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*. – 2023. – T. 3. – №. 05. – C. 91-94.
26. Choriyeva M. A. THEORY OF KNOWLEDGE AND RATIONALISM IN THE PHILOSOPHY OF FIRDAVSI //*European International Journal of Pedagogics*. – 2023. – T. 3. – №. 06. – C. 104-108.
27. Choriyeva M. A. THE THEORETICAL ORIGIN OF FIRDAUSI'S PHILOSOPHICAL WORLD VIEWS.(ANALYSIS OF PART 1) //*Journal of Social Research in Uzbekistan*. – 2022. – T. 2. – №. 04. – C. 34-39.
28. Choriyeva M. A. The theoretical origin of firdausi's philosophical world views.(analysis of part 3) //*Builders Of The Future*. – 2022. – T. 2. – №. 03. – C. 7-12.
29. Akhmedova Z. A. PHILOSOPHY OF THE FIRST JADID AHMAD MAHDUM DONISH //*CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*. – 2021. – T. 2. – №. 12. – C. 41-44.